

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV SHUXRAT MUSAYEVICH**

**SANOATLASHGAN PARRANDACHILIKDA IMMUNOPROFILAKTIK  
EMLASHLARNI OPTIMALLASHTIRISHNING IDIOTIPIK  
TARMOQLARDAN FOYDALANISH KO'RSATKICHLARI**

**16.00.03-Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi,  
mikologiyasi, mikotoksikologiyasi va immunologiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand-2025**

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации на соискание ученой степени  
доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам**

**Contents of the abstract of the dissertation for the degree of Doctor of  
Philosophy (PhD) in Veterinary Sciences**

**Abdullayev Shuxrat Musayevich**

Sanoatlashgan parrandachilikda immunoprofilaktik emlashlarni  
optimallashtirishning idiotipik tarmoqlardan foydalanish ko'rsatkichlari.....3

**Абдуллаев Шухрат Мусаевич**

Показатели использования идиотипических сетей для оптимизации  
иммунопрофилактических прививок в промышленном птицеводстве.....23

**Abdullayev Shuxrat Musayevich**

Indicators of the use of idiotypic networks for optimization of  
immunoprophylactic vaccinations in industrial poultry farming.....43

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ

List of published

Works.....46

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV SHUXRAT MUSAYEVICH**

**SANOATLASHGAN PARRANDACHILIKDA IMMUNOPROFILAKTIK  
EMLASHLARNI OPTIMALLASHTIRISHNING IDIOTIPIK  
TARMOQLARDAN FOYDALANISH KO'RSATKICHLARI**

**16.00.03-Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi,  
mikologiyasi, mikotoksikologiyasi va immunologiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/V78 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.ssuv.uz](http://www.ssuv.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Ruzikulov Rahmatillo Fayzullayevich</b> veterinariya fanlari nomzodi, dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Davlatov Ravshan Berdiyevich</b> veterinariya fanlari doktori, professor <b>Ulug'murodov Azamat Daminovich</b> veterinariya fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>SamDTU huzuridagi L.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «13» 09 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86; e-mail: [ssuv@edu.uz](mailto:ssuv@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 14345 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99855) 707-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «28» 08 kuni tarqatildi.  
(2025 yil «28» 08 dagi № 3 -raqamli reyestr bayonnomasi)



**X.B.Yunusov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, biol.f.d., professor  
**K.X.Urokov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, vet.f.f.d. (PhD), dosent  
**Q.N.Norboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Ko'pchilik dunyo mamlakatlarida parrandachilik sohasi jadal rivojlanayotganligini aniq tasdiqlashimiz mumkin. Dunyo aholisini ko'payotganligi va ularni oziq ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash global muammo hisoblanadi. Uni yechishda parrandachilik asosiy o'rinni egallaydi, qaysikim jahonda hayvonot oqsilini ishlab chiqarishda chorvachilikni lokomotividir va odamlarni muhim iste'mol mahsulotidir. Parrandachilik noyob yo'nalish, oziq-ovqat bozorini ikkita yuqori proteinli mahsulot- iste'mol tuxumi va parhezli go'sht bilan ta'minlaydi. Dunyoda tuxum ishlab chiqarish dinamikasiga qarasaq, bir yilda 1 trln 749,6 mlrd donagachaligini ko'ramiz va bu raqam yildan yilga oshmoqda. FAO ma'lumoti bo'yicha, chorva hayvonlaridan go'sht ishlab chiqarishda parranda go'shti yetakchi o'rinni egallaydi, dunyo aholisini go'shtga bo'lgan ehtiyojini 38,7% ni qoplamogda<sup>1</sup>.

Dunyo miqyosida parrandachilik sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishishda infeksiyon kasalliklarni samarali immunoprofilaktikasi asosiy o'rinni egallaydi. Barcha sanoatlashgan parrandachilik xo'jaliklarini immunoprofilaktik tadbirlar rejasida pantrop virusli infeksiyalarni (Gripp, Nyukasl, Infeksiyon bronxit) samarali immunoprofilaktikasi asosiy vazifa ekanligi ma'lum. Jahon hayvonlar sog'lig'i tashkiloti (JHST)ning ma'lumoti bo'yicha, ayrim davlatlarda hayvonlarning infeksiyon kasalliklari ichida parrandalarning yuqori patogen grippi va Nyukasl kasalligi qayd qilinayotganligi havotirlidir. Albatta ushbu kasalliklar, yovvoyi parrandalar migratsiya qilishi orqali transchegaraviy tarqalishi mumkin. Shuning uchun ham infeksiyon kasalliklarni samarali immunoprofilaktikasi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda sanoatlashgan parrandachilik o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab rivojlanib kelmoqda. Albatta, hamma vaqt parrandalar Nyukasl kasalligini samarali immunoprofilaktikasi muhim tadbirlardan biri hisoblangan. Chunki, bir necha bor kasallik aniqlanib, kartantin qarshi kurash tadbirlari bajarilgan. Shuning uchun, hozirgi vaqtda ham pantrop virusli infeksiyalarni (Gripp, Nyukasl, Infeksiyon bronxit) samarali immunoprofilaktikasini amalga oshirish mutaxassislar oldida turgan ahamiyatli majburiyat hisoblanadi. Ushbu pantrop infeksiyalarga qarshi yildan yilga yangi vaksinalarni ishlab chiqarilayotganligi, ilmiy-amaliy tadqiqotlar to'xtovsiz amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son<sup>2</sup> Farmonida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish,

---

<sup>1</sup> Фисинин В.И. Динамика развития мирового и Российского птицеводства // РФ, в журнале Комбикорма №4 2024. – С. 2-6.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohatlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida chorvachilikda yillik o'sish sur'atini kamida 3,8 %ga yetkazish, 8,7 mlrd dona tuxum va 650 ming tonna parranda go'shti ishlab chiqish, inkubatsion tuxum ishlab chiqarishni 265 mln donaga yetkazish, parrandachilik yo'nalishidagi 306 ta loyihani amalga oshirish, aholi xonadonlariga 11,1 mln bosh parranda tarqatishni yo'lga qo'yish nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-120-son qarori<sup>3</sup>, 2023 yil 28 fevraldagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Isonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-son farmoni, 2021 yil 14 iyundagi "Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq oziqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5146-son qarori, 2022 yil 24 yanvardagi "Parrandachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab quvatlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-100-son qarori, 2022 yil 15 iyundagi "Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-281-son qarori, ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, dissertatsiya tadqiqotlari natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarning rivojlantirishning V-"Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, suv muammolari, ekologiya va atrof muhitni muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda sanoatlashgan parrandachilik 1960-yillardan boshlab rivojlana boshlagan. Sanoatlashgan parrandachilikni asosiy muammolaridan biri infeksiyon kasalliklarni immunoprofilaktikasi bo'lib kelgan. Infeksiyon kasalliklarni oldini olishda turli xil vaksinalarni va qo'llash usullarini sinab ko'rib, ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Sanoatlashgan parrandachilikda infeksiyon kasalliklaridan parrandalarni Nyukasl kasalligini oldini olish asosiy immunoprofilaktik tadbir hisoblangan va hozir ham shunday. Dunyo miqyosida Nyukasl kasalligini epizootologiyasini, diagnoz qo'yish usullarini M.Svashov, L.V.Popov, P.Hanson, A.B.Baydevlyatov, B.F.Bessarabov, P.B.Spradrow et al, P.K.Wngt et al. o'rgangan bo'lsalar, maxsus profiolaktika usullarini va preparatlarini S.G.Iyer, N.Dobson, S.B.Hitschner, E.P. Johnson, F.R.Beaudette, C.B.Hudson, N.V.Lixachev va b., R.N.Korovin, V.V. Chernishev va b., F.S.Kudryavtsev va b., A.G.Reznix, A.B.Kachaxidze va b.,

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-120-son qarori

Yu.X. Kre Gsher, R.G.Stewart, R.G.Ayrapetov, M.I.Slobodenyuk, R.M.Zinkernagel ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilishgan.

O‘zbekistonda F.A.Niyazov “O‘zbekistonda parrandalarni Nyukasl kasalligini epizootologiyasi, qarshi kurash va profilaktikasi” mavzusi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va ko‘p ilmiy maqolalar nashr etgan.

Immunologiya sohasida idiotip-antiidiotip tarmoqlar nazariyasi haqida K.N. Erne, B.N.Sofronov, L.S.Kositskaya, T.G.Shemerovskaya, Yu.L.Jitiuxina, M.A. Bichurinalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Parrandalarni Nyukasl va parranda Gripp kasalligi pantrop infeksiyaligini inobatga olsak, samarali immunoprofilaktika qilishda doimo keng ko‘lamdagi immunoprofilaktik tadbirlar va immunoserologik tekshirishlar bajarilib kelinmoqda, ammo ushbu infeksiyon kasalliklarni xavfi sanoatlashgan parrandachilikda xanuzgacha mavjuddir.

Shuning uchun ham ushbu mavzuda dunyo va yurtimiz olimlari tomonidan ilmiy tadqiqotlar to‘xtovsiz amalga oshirilib kelinmoqda. Parrandalar immunologiyasida idiotip va antiidiotip antitelolari yuzasidan dunyo miqyosida keng ko‘lamli tadqiqotlar bajarilmagan, O‘zbekiston Respublikasida esa, birinchi ilmiy tadqiqot hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ilmiy tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti ilmiy ishlar rejasi va Samarqand tumanidagi “Mironqul agrozoovetservis ilmiy-amaliy markazi” MChJ bilan 2021 yil 26-fevraldagi №5 son ilmiy-amaliy hamkorlik shartnomasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sanoatlashgan parrandachilikda pantrop infeksiyalarni immunoprofilaktikasida makroorganizmni antitelogenezini immunologiyasiga asoslangan holda ilmiy yondashib, immunoprofilaktik emlashlarni samaradorligini oshirish hisoblanadi.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

sanoatlashgan parrandachilikda yuqori kontagiozli, tabiiy o‘choqli transchegaraviy pantrop infeksiyon kasalliklarini oldini olishda immunoprofilaktika samaradorligini oshirish;

sanoatlashgan parrandachilikda pantrop infeksiyon kasalliklarini immunoprofilaktik vaksinatsiyalar sonini kamaytirish;

pantrop infeksiyalarni patogenezini inobatga olgan holda, immunoprofilaktikasiga ilmiy immunologik asoslangan tarzda immunoglobulinlarni sinflari kesimida samarali yondashish;

immunoprofilaktik vaksinatsiyalarni samaradorligini immunologik rezonans fenomeni asosida amalga oshirish;

sanoatlashgan parrandachilikda immunoprofilaktik emlashlarni samaradorligini oshirishda, idiotipik tarmoqlar nazariyasiga asoslangan holda immunologik rezonans fenomeni asosida bajarish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida "Ohalik Lomann parranda", "Samarqand-parranda" "Nasiba-parranda" parrandachilik fabrikalariga qarashli Lohmann krossiga mansub tovuqlar, "Navobod naslli parranda" parrandachilik fabrikasi, "Mironqul agrozoovetservis ilmiy-amaliy markazi" MChJ parrandachilik xo'jaligiga qarashli Ross-308 krossiga mansub broyler jo'jalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, Lohmann krossiga mansub tuxum yo'nalishidagi tovuqlar va go'sht yo'nalishidagi Ross-308 krossiga mansub broyler jo'jalarining qon zardobi, qon zardoblarining biokimyoviy va immunoserologik ko'rsatkichlari xizmat qilgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda refraktometrik, elektroforez, immunologik eritma usuli, IgM va IgG miqdorini aniqlashda Manchining immunodiffuziya usuli, immunoserologik tahlil gemagglyutinatsiyani tormozlash reaksiyasi (GATR) usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor, sanoatlashgan parrandachilikda pantrop infeksiyalarni immunoprofilaktika qilishda K. Erning idiotipik tarmoqlar nazariyasiga asoslangan holda, immunologik rezonans fenomeni vaksina antigeni bilan tegishli antiidiotiplarning immunogen ta'sirlari sinxronlashganda yuz berishi va turg'un davomli immunitet shakllanishi aniqlangan;

IgM immunoglobulinlari pentamer, ya'ni 10 ta aktiv markazdan iborat bo'lib, 5-10 ta antigenni neytrallash hususiyati borligi sanoatlashgan parrandachilikda pantrop virusli infeksiyalarga qarshi kurashda asosiy ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan;

IgM immunoglobulinlarining yuqori miqdorda bo'lishini ta'minlash, sanoatlashgan parrandachilikda pantrop virusli infeksiyalarni immunoprofilaktika qilishda asosiy o'rinni egallashi aniqlangan;

sanoatlashgan parrandachilikda IgM immunoglobulinlarining yuqori miqdorda idiotiplar va antiidiotiplar tarmog'ini yaratish orqali pantrop virusli infeksiyalarni samarali immunoprofilaktika qilish mumkinligi aniqlangan;

virusning virulentli shtammi ko'p sonli parrandalar bosh sonidan o'tishi orqali, ularning antigenlik strukturasi o'zgarib, patogenligi oshishi sababli virulentli virus shtammi xavfi holatida, vaksina antigeniga qarshi ishlab chiqarilayotgan IgM antitelolari sinxronlashib, idiotiplar va antiidiotiplar tarmog'i yaratilsa, samarali immunoprofilaktik emlashlar ta'minlanishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

"Ohalik-Lohmann Parranda" QK parrandachilik fabrikasida Nyukasl kasalligiga qarshi 14 kunligida emlanganda vaksina antigeni va idiotiplarning immunogenlik ta'sirlari o'z vaqtida sinxronlashtirilsa, postvaksinal immunitet to'liqsimon turoqli va yuqori darajali bo'lishi ko'rsatilgan;

"Ohalik-Lohmann Parranda" parrandachilik fabrikasida aralash va noaralash populyatsiyalardan shakllantirilgan tovuqxonalarda, tirik vaksina bilan emlangan parrandalar tashqi muhitga virusni mavjud virusologik usullar

yordamida qayd qilinishi mumkin bo'lgan miqdorda chiqarmagan taqdirda ham, oz miqdorida bo'lishiga qaramasdan, bu miqdor immunogenligining emlangan parrandalar organizmida to'planayotgan antiidiotiplarning immunogenligi bilan uyg'unlashishi aralash populyasiyalarda Nyukasl kasalligi qo'zg'atuvchisiga qarshi immun javob darajasining o'z-o'zidan ko'tarilishiga va to'liqsimon turoqli tus olishiga sabab bo'lishi ko'rsatilgan;

passiv immun quvvati past va yuqori bo'lgan jo'jalarda Nyukasl kasalligining qo'zg'atuvchisiga qarshi "Samarqand parranda" p/f jo'jalarini emlashlarda immun javobning monitoringi asosida, passiv immun quvvati yuqori bo'lgan jo'jalarda vaksina antigeni bilan idiotiplar immunogen xususiyatlarining sinxronlashishi immun quvvati turg'un va samarali bo'lishi aniqlangan;

tovuq embrionida Nyukasl kasalligi qo'zg'atuvchisiga qarshi passiv immunitet shakllanish dinamikasi bo'yicha embrionga yuqori miqdorda IgM immunoglobulinlarini natal taraqqiyotni oxirgi 3 kunida ichaklar orqali pinotsitoz yo'li bilan so'rilishi muhim immunologik ahamiyatga ega ekanligi izohlangan;

sanoatlashgan parrandachilikda Nyukasl kasalligini oldini olishda faolsizlantirilgan vaksinasini o'rni, ya'ni antitelogenezni birinchi 5-10 kunlarida antitelolardan IgM antitelolari sintezlanishi va bu muhim immunoprofilaktik ahamiyatga ega ekanligi izohlangan;

sanoatlashgan parrandachilikda Nyukasl kasalligini oldini olishda La-sota shtammi tirik vaksinani reaktogenli ta'sir qilish orqali samarali immunoprofilaktikani ta'minlash, ya'ni neonatal taraqqiyotni, hamda antitelogenezni boshlanishida IgM antitelolari sintezlanadi va ularning yuqori miqdorda bo'lishini ta'minlash immunologik muhimligi isbotlangan;

IgM immunoglobulinlar yirik pentomerligini, 5-10 antigenni o'ziga birlashtirib neytrallash hususiyatiga ega ekanligini inobatga olib, pantrop virusli infeksiyalarni samarali immunoprofilaktikasida muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** shundan iboratki parrandalarda immunoglobulinlarning (IgM, IgA, IgG) sintezlanishi tartibini, strukturasini va faoliyatini tahlil qilganimizda, hamda qon zardobini biokimyoviy, immunoserologik tekshirishlar natijalari sarhisobi va olgan amaliy natijalarimizni xalqaro ilmiy jurnalda nashr etilganligi, ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilishi, olingan natijalar universitet aprobatsiya komissiyasi tomonidan ilmiy-tadqiqot va olingan natijalarga ijobiy baho berilganligi, sanoatlashgan parrandachilik xo'jaliklarda bajargan tadqiqotlarimiz va ilmiy tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy qilinganligi, olingan amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki sanoatlashgan parrandachilikda pantrop infeksiyalarni immunoprofilaktika qilishda K. Erning idiotipik tarmoqlar nazariyasiga asoslangan holda, immunologik rezonans fenomeni vaksina antigeni bilan tegishli antiidiotiplarning immunogen ta'sirlari

sinxronlashganda yuz berishi va turg'un davomli immunitet shakllanishi aniqlanganligi, IgM immunoglobulinlari pentamer, ya'ni 10 ta aktiv markazdan iborat bo'lib, 5-10 ta antigenni neytrallash hususiyati borligi, sanoatlashgan parrandachilikda pantrop virusli infeksiyalarga qarshi kurashda asosiy ahamiyatga ega ekanligini ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki sanoatlashgan parrandachilikda infeksiyon kasallik qayd qilinib, karantin tadbiri o'rnatilsa, epizootiyaga qarshi kurash, iqtisodiy jihatdan katta zararga olib keladi. Shuning uchun samarali immunoprofilaktikani amaliyotga joriy qilish, shu yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar yuqori amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan tavsiflanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sanoatlashgan parrandachilikda immunoprofilaktik emlashlarni optimallashtirishning idiotipik tarmoqlardan foydalanish ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotlar natijalari asosida:

infeksiyon kasalliklarini oldini olishda immunoprofilaktika samaradorligini oshirish va vaksinatsiyalar sonini kamaytirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar, sanoat asosida boqilayotgan "Nasiba-parranda" MChJ, "Ilonsoy Lomann-parranda" F/X, "Navobod Naslli Parranda" F/X, "Mironqul agrozoovetservis ilmiy-amaliy markazi" MChJ parrandachilik xo'jaliklarida joriy qilingan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 21 apreldagi 02/23-264-son ma'lumotnomasi). Ushbu parrandachilik xo'jaliklarida faolsizlantirilgan vaksinani qo'llash orqali yuqori miqdorda IgM immunoglobulinlarini sintezlanishini ta'minlash orqali Nyukasl kasalligining dala virusi xavfi holatida samarali immunoprofilaktika qilishga erishilgan;

"Mironqul agrozoovetservis ilmiy-amaliy markazi" MChJ parrandachilik xo'jaligida Nyukasl kasalligining samarali immunoprofilaktikasi uchun La-Sota shtammi tirik vaksinani aerozol usulda reaktogenli ta'sir qilib qo'llash usuli joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 21 apreldagi 02/23-264-son ma'lumotnomasi). Bunda emlangan parrandalar organizmida yuqori miqdorda IgM antitelolarini hosil bo'lishi hisobiga Nyukasl kasalligining samarali immunoprofilaktikasiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur ilmiy tadqiqotlar natijalari 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjuman (konferentsiya)larida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda: 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, 7 xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plamida chop etilgan. 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyani hajmi 118 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Amaliyotda ko‘p yillik kuzatishlarimiz va bajargan ilmiy-amaliy tadqiqotlarimiz natijasida yozilgan dissertatsiyani **“Kirish”** qismida, amalga oshirilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligini, hukumatimizning parrandachilik sohasini rivojlanishiga berayotgan e‘tibordan, shu asosda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va qishloq aholisi xonadonlarini chorva hayvonlarini parvarishlash orqali kambag‘illikdan chiqarishga ko‘maklashishi hisoblanadi. Ushbu islohatlarni amalga oshirish uchun, sanoatlashgan parrandachilikda va aholi xonadonlarida parrandalarni infeksiyon kasalliklardan samarali profilaktikasini ta‘minlash asosiy o‘rinni egallaydi. Tadqiqotning maqsadi va vazifasi sanoatlashgan parrandachilikda infeksiyon kasalliklarni samarali immunoprofilaktikasini ta‘minlash hisoblanadi. Dissertatsiyada tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari batafsil yoritilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiya natijalari, nashr etilgan ilmiy maqolalari va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning I-bobi **“Adabiyodlar tahlili”** deb nomlanib, to‘qqizta qismdan iborat va bu bobda 18-19-asrlardan boshlab, hozirgi davrgacha bo‘lgan Respublikamiz va dunyo miqyosidagi olimlarni infeksiyon kasalliklarga qarshi olib borgan tadqiqotlari va olgan natijalari, immunologiya yo‘nalishi tahlili qisqacha yoritilgan.

Dissertatsiyaning II-bobi **“Xususiy tadqiqotlar”** deb nomlanib, tadqiqotlar jarayonida bajargan laboratoriya tahlillari va usullari haqida ma‘lumotlar bayon etilgan. Laboratoriya tahlillarini tovuq embrionida, tuxum va go‘sh tayo‘nalishidagi jo‘jalarda amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning III-bobi **“Xususiy tadqiqotlar natijalari”** deb nomlanib, sakkizta qismdan iborat bo‘lib, **“Ohalik Lohmann-parranda” QK parrandachilik fabrikasida Nyukasl kasalligi vaksina profilaktikasi va serologik (GATR) tekshirishlarning tahlili haqida ma‘lumotlar** bilan birinchi qismi boshlangan.

Nyukasl kasalligi vaksina profilaktikasiga doir epizootologik tadqiqotlar **“Ohalik-Lohmann Parranda” QK parrandachilik fabrikasida Nyukasl kasalligiga qarshi muntazam ravishda olib borilayotgan vaksinatsiya va revaksinatsiya natijalarini ifoda etuvchi monitoring ko‘rsatkichlarining tahliliga ko‘ra, mazkur xo‘jalikda 1995-1999 yillar davomida Nyukasl kasalligining xavfi batamom bartaraf qilinib turilgan bo‘lsada, emlashdan keyingi immunitet quvvatining monitoringiga ko‘ra, turg‘un samaradorlikka ega emasligi aniqlandi.**

Ayni paytda ayrim tovuqxonalarda 6-7 va hatto 18 oyni tashkil qilgan. Ayniqsa, o‘stirilayotgan jo‘jalar 4-5 oylik bo‘lganlaricha ham undan keyingi 18-22 oylik bo‘lganlaricha ham o‘rtacha 4-5 martadan revaksinatsiya qilinganligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm.

**“Ohalik-Lomann parranda” parrandachilik fabrikasining 1995-1998 yillarda jo'ja xona hamda tovuqxonalarida Nyukasl kasalligiga qarshi qilingan vaksinatsiyalar soni (n=)**

1-rasm ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili jo'jalarda revaksinatsiyalar intervali o'ta qisqa ekanligidan dalolat bersada, buni faqat yosh organizm immun tizimining quvvatga kirish davrida ekanligi bilangina bog'lash mumkin emas.

Albatta ularning yetakchisini topish emlashlar sonini kamaytirishga xizmat qilmasligi mumkin emas. Bunga aniqlik kiritish nafaqat amaliy balki immunoprofilaktika nazariyotiga ham kerakli hissa qo'shadi va boshqa infeksiyalarga qarshi kurashga ham ta'lluqli bo'ladi.

Muammoning e'tiborli yana bir jihati shundan iboratki, jo'jalarda bu ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi omillar qatoriga inkubatsion tuxumning sifati jo'jalarda passiv va faol immunitetlar o'rtasidagi munosabatlarning ta'siriga kuchliroq bo'lishi tabiiydir.

Shuning uchun ham, asosiy e'tiborni jo'jalarning passiv immunitetiga va u bilan faol immunitet o'rtasidagi munosabat xarakterini aniqlashga qaratildi. Buning uchun esa, avvalam bor eng kam (3 marta) va eng ko'p (4-6 marta) emlangan jo'ja guruhlarida passiv va faol immunitet darajalari o'rtasidagi nisbatning vaksinatsiyalar sonida aks etishini solishtirildi (1-2-3-jadvallar).

1-2-3-jadvallar ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili avvalam bor, shuni ko'rsatadiki, passiv immunitet quvvati darajasi o'xshash bo'lgan jo'ja populyatsiyalarida ham emlashdan keyingi immunitet natijalari farq qilishi mumkin.

Darhaqiqat, 1-jadvalda vaksinatsiyalar samaradorligi 2-3-jadvaldagidan yuqori ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, bu ikkala guruhdagi immunoprofilaktika natijalarining farqi jo'jalar birinchi marta necha kunligida vaksinatsiya qilinganligidadir. 1-jadvalda 13-14 kunligida birinchi marta emlangan jo'jalarga doir natijalar keltirilgan bo'lsa, 2-3-jadvalda esa, 19-20 va 11-13 kunligidan boshlab birinchi marta emlangan jo'jalarga doir ma'lumotlar keltirilgan.

**1-jadval**

**4-5 oylik bo‘lganlarigacha eng kam (3 marta) emlangan jo‘jalarda passiv va emlashdan keyingi immunitet dinamikasi (La-Sota shtamm) (n=25000)**

<b>Antitelolar titri aniqlangan kun</b>	<b>Vaksinatsiya qilingan kun</b>	<b>Passiv immunitet darajasi, %</b>	<b>Faol immunitet darajasi, %</b>
5		100	
	13-14		
29			100
	34-35		
49			96
64			64
	65-66		
78			92
93			80
107			84
121			28

**2-jadval**

**4-5 oylik bo‘lganlarigacha eng ko‘p (6 marta) emlangan jo‘jalarda passiv va emlashdan keyingi immunitet dinamikasi (La-Sota shtamm) (n=25000)**

<b>Antitelolar titri aniqlangan kun</b>	<b>Vaksinatsiya qilingan kun</b>	<b>Passiv immunitet darajasi, %</b>	<b>Faol immunitet darajasi, %</b>
6		96	
	19-20		
34-36			72
	40-41		
56-57			68
	58-59		
72-73			56
	74-75		
90-91			16
	92-93		
104-105			28
	106-107		
125-126			100

Demak, jo‘jalar vaksinatsiyasining samaradorligi birinchi navbatda dastlabki vaksinatsiya jo‘jalarning necha kunligida qilinganligiga bog‘liq. Chunki, jadvallardan ko‘rinib turibdiki 13-14 kunligida vaksinatsiya samaradorligi 19-20 va 11-13 kunlikdagidan 2 barobar katta.

To‘g‘ri, odatda boshqa infeksiyalar va hayvonlar uchun ham dastlabki vaksinatsiyalar oralig‘i 14 kun bo‘lishi tavsiya qilinib kelinadi. Biroq uning mohiyati yoritilmay qolmoqda edi. Faqat interferensiyadan, ya‘ni organizmdagi

antitelolar tomonidan vakcina antigenining neytrallab tashlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun deb, yoritilib kelinmoqda edi.

### 3-jadval

#### Dastlabki vaksinatsiyada sinxronlashtirilmagan populyatsiyada passiv va emlashdan keyingi immunitet natijasi (La-Sota shtamm) (n=25000)

Antitelolar titri aniqlangan kun	Vaksinatsiya qilingan kun	Passiv immunitet darajasi, %	Faol immunitet darajasi, %
5		100	
	11-13		
29			36
	34-35		
49			16
	50-51		
67			56
80			72
	81-82		
97			100
111			100
126			100

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, barcha vaksinatsiyalarda dastlabki 14 kunlikda emlashdan keyingi antitelolar titri optimal darajaga ko‘tarilganligiga ko‘ra, harajat bo‘lmagan yoki eliminatsiyalanmagan passiv antitelolar qismi o‘z navbatida antigen sifatida ta‘sir qilib, antiidiotipik antitelolar sintez bo‘lishini boshlaydilar.

Shunga binoan 1-jadvalda keltirilgan jo‘jalarning Nyukasl kasalligi qo‘zg‘atuvchisiga qarshi emlashga javoban sintez bo‘layotgan antitelolar titri dinamikasining to‘lqinsimon turg‘un bo‘lishini ta‘minlovchi bosh omil yuqori miqdordagi passiv immunitet va 14 kundan keyin ularga qarshi antiidiotiplar sintezlanishi vakcinaga qarshi ishlab chiqarilayotgan antitelolar bilan sinxronlashishida deb, hisoblandi.

2-va 3-jadvallardagi postvaksinal antitelolar titri dinamikasining turoqsiz va past darajada bo‘lishiga sabab birinchi vaksinatsiyaning 19-20 va 11-13 kunligida amalga oshirilganligi, ya‘ni antiidiotiplar ta‘siri boshlanganidan 4-5 kun o‘tkazib yuborilganligi yoki 2-3 kun oldinroq deb, hisoblandi.

Gap shundaki, agarda birlamchi vaksinatsiyaning immunogenlik ta‘siri idiotiplarning immunogenlik xususiyati bilan sinxronlashtirilsa, immunologik rezonans fenomeni yuz berib, immun javobning antitelolar titri dinamikasining to‘lqinsimon turg‘un ko‘rinish kasb etishini ta‘minlaydi. Aks holda, emlashdan keying immunitet past titrli va turoqsiz darajada bo‘ladi.

Vakcina antigeni bilan idiotiplarning immunogen ta‘sirlarining sinxronlashtirilishining samaradorligi barcha hollarda ham bir xil bo‘lavermaydi. Buni past darajali passiv immunitetga ega bo‘lgan jo‘jalardagi sinxronlashtirish natijasini (4-jadval) tahlili.

**4-jadval****Past darajali passiv immunitet bilan sinxronlashgan emlashdan keyingi immun javob dinamikasi (La-Sota shtamm) (n=25000)**

<b>Antitelolar titri aniqlangan kun</b>	<b>Vaksinatsiya qilingan kun</b>	<b>Passiv immunitet darajasi %</b>	<b>Faol immunitet darajasi, %</b>
6		68	
	14-15		
34-35			48
	40-41		
57-58			92
70-71			48
	73-74		
90-91			88
	103-104		
105-106			52
	118-119		

4-jadvalda ko‘rinib turibdiki, garchi jo‘jalar 14-15 kunligida ya‘ni idiotiplarning ham immunogen ta‘siri boshlangan davrda emlangan bo‘lsada, emlashdan keyingi immunitet darajasi past va turoqsiz bo‘lgan.

Demak, postvaksinal immunitet dinamikasini to‘lqinsimon turoqli va yuqori darajali bo‘lishi uchun yuqori darajali passiv immunitetga ega bo‘lishi ham muhim ahamiyati borligi aniqlandi.

Bu bilan passiv immunitet 14 kunlikdan keyin faol immunitet hosil qilishda ahamiyati borligini, past passiv immun quvvatdagi izohlangan.

Tadqiqotlarimiz, fabrikaning turli tovuqxonalarda parrandalarning parvarishi, zoti, yoshi o‘xshash bo‘lishlariga qaramasdan, bir ishlab chiqarish sikli davomida Nyukasl kasalligi qo‘zg‘atuvchisiga qarshi qayta emlashlar soni bir-biridan keskin farq qilishini ko‘rsatdi.

Gap shundaki, jo‘jalar 4 oylik bo‘lgach jo‘jaxonalardan tovuqxonalarga ko‘chiriladi. Odatda har bir tovuqxona bitta jo‘jaxonada birga o‘stirilgan bir xil yoshdagi 28 ming jo‘ja ko‘chiriladi. Boshqa boshqa jo‘jaxonalarda o‘stirilgan yosh tovuqlarning aralashtirilishi tavsiya qilinmaydi.

Bu immunoprofilaktika tadbirlarining samaradorligiga va me‘yoriy texnologik jarayonlarni bajarishga salbiy ta‘sir qiladi deb, hisoblanadi. Bizning tadqiqotlarimiz esa, kutilmaganda teskari natija berdi.

Darhaqiqat, qayta vaksinatsiyalar oralig‘i eng uzoq bo‘lgan 10 va 4-tovuqxonalardagi parrandalar populyasiyalari boshqa-boshqa jo‘jaxonalarda boqilgan yosh tovuqlarni qo‘shish yo‘li bilan shakllantirilgan ekan. Aralashtirilayotgan yosh tovuqlarning yoshi bir-biridan bir oyga yaqin farqqa ega bo‘lgan.

Aksincha, jo‘jalarning bitta populyatsiyasidan shakllantirilgan tovuqxonalardan biri, ya‘ni 9-tovuqxonada qayta emlashlar soni ko‘p va shuning uchun ham vaksinatsiyalar oralig‘i qisqa ekan.

Vaksinatsiyalar oralig'ining uzoq yoki qisqa bo'lishi aynan shunga bog'liq ekanligini aniqlash uchun 1995-1999 yillar davomida "Ohalik-Lohmann Parranda" parrandachilik fabrikasida aralash va noaralash populyatsiyalardan shakllantirilgan tovuqxonalaridagi emlashlar oralig'ining davomiylik vaqti ko'rsatkichlari va revaksinatsiyalar soni biometrik tahlildan o'tkazilib, qiyoslandi.

5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, aralash populyatsiyalardan shakllantirilgan tovuqxonalarda vaksinatsiyalar oralig'i uzoq bo'lsa, jo'jalarning bitta populyatsiyasidan shakllantirilgan tovuqxonalarda esa, eng qisqa vaqtga ega.

Bu fenomenning mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi ishchi gipoteza sifatida avvalam bor, qo'shilayotgan populyasiyalar emlangan tirik shtammidan tayyorlangan vaksina virusi orqali bir-birlarini immunlashi mumkinligi nazarda tutiladi.

Gap shundaki, tirik vaksina bilan emlangan parrandalar tashqi muhitga virusni mavjud virusologik usullar yordamida qayd qilinishi mumkin bo'lgan miqdorda chiqarmagan taqdirda ham, oz miqdorda bo'lishiga qaramasdan, bu miqdor immunogenligining emlangan parrandalar organizmida to'planayotgan antiidiotiplarning immunogenligi bilan uyg'unlashishi aralash populyasiyalarda Nyukasl kasalligi qo'zg'atuvchisiga qarshi immun javob darajasining o'z-o'zidan ko'tarilishiga va to'liqsimon turoqli tus olishiga sabab bo'ladi.

#### 5 -jadval

#### Vaksina va antiidiotiplarning immunogen ta'sirlari sinxronlashtirilgan (aralash populyatsiyalar) va sinxronlashtirilmagan (noaralash populyatsiyalar) tovuqxonalaridagi La-Sota shtamli virus vaksinatsiyaga javobi ko'rsatkichlari (M±m).

Ko'rsatkichlar	Sinxronlashtirilgan tovuqxonalarda	Sinxronlashtirilmagan tovuqxonalarda
1. Immun quvvat davomiyligi (kun)	239±91.98	176±33.17
2. Ishlab chiqarish sikli davomidagi emlashlar soni	1.5±0.17	2.6±0.22

Dissertatsiyaning III-bob 2-qismida **Nyukasl kasalligi qo'zg'atuvchisiga qarshi emlangan jo'jalar qonidan ajratib olingan antiidiotiplarning immunogen xususiyati yoritilgan** va quyidagi tajribalarni o'tkazildi.

Emlangan jo'jalar qonida Nyukasl kasalligini qo'zg'atuvchi virusiga qarshi sintezlanayotgan idiotiplarning antigenlik ta'siriga javoban sintezlanayotgan antiidiotiplarning immunogen xususiyatini o'rganishni passiv immunitet titri eng pasaygan vaqtini aniqlashga qaratilgan eksperimentdan boshlandi.

Tajriba "Samarqand Parranda" parrandachilik fabrikasining inkubatorida ochirilgan 50 ta bir kunlik jo'jalarda yo'lga qo'yildi. Tadqiqotlar jo'jalar 8 haftalik bo'lganlarigacha davom etdi. Har ikki haftada o'ntadan jo'ja so'yilib, qon olindi. Qon zardobi tarkibidagi Nyukasl kasalligi qo'zg'atuvchisiga qarshi antitelolar titri aniqlab borildi. Tajriba natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

## 6-jadval

### Emlanmagan jo‘jalar qon zardobidagi Nyukasl kasalligini qo‘zg‘atuvchi virusga qarshi antitelolar titri (GATR) (n=10)

Jo‘jalarning qator №	Bir kunlik jo‘jalarda	Haftalar			
		2	4	6	8
1.	1:32	1:4	1:16	1:8	1:2
2.	1:8	1:4	1:32	1:16	1:4
3.	1:64	1:16	1:16	1:16	1:4
4.	1:16	1:8	1:4	1:16	1:4
5.	1:32	1:8	1:16	1:4	1:16
6.	1:8	1:8	1:16	1:16	1:8
7.	1:32	1:4	1:32	1:8	1:8
8.	1:16	1:2	1:8	1:2	1:2
9.	1:16	1:8	1:16	1:2	1:2
10.	1:64	1:2	1:16	1:8	1:4
Lg	4.5 Lg	2.4 Lg	3.9 Lg	2.9 Lg	2.1 Lg

6-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, emlanmagan jo‘jalarda passiv immunitet ta‘siri ikki haftalik bo‘lganlarida minimal ko‘rsatkichga tushib ketganligiga qaramasdan, 4 haftaliklarida avvalgi darajaga yetmasada ko‘tarilib, to‘lqinsimon turoqli holatga o‘ta boshlaydi va so‘nib boradi. Shunga ko‘ra, aynan ikki oylik jo‘jalarda antiidiotiplarning immunogen xususiyatini vaksinanikiga qiyoslashga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazildi.

